



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/12**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



**№12/2023**  
**DEKABR (1)**

**Muassis:**  
 Buxoro davlat universiteti  
 Fan va ta'lim MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
 Xamidov Obidjon Xafizovich,  
 Buxoro davlat universiteti rektori

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil Ergashevich

**Tahririyat manzili:**  
 Buxoro shahar,  
 Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
 eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
 www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining  
 2021 yil 30 sentyabrda  
 306/6-son Qarori bilan  
**PEDAGOGIKA,  
 PSIXOLOGIYA,  
 FILOLOGIYA, TARIX  
 FANLARI** bo'yicha falsafa  
 doktori (PhD) va fan doktori  
 (DSc) ilmiy darajasiga  
 talabgorlarning dissertatsiya  
 ishlari yuzasidan asosiy  
 ilmiy natijalarini chop etish  
 tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
 ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:  
 15.12.2023 y.  
 Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
 b/t.12,5.

Buyurtma raqami 1.23  
 «FAN VA TA'LIM»  
 nashriyotida chop etildi.  
 Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305  
 raqami bilan O'zbekiston  
 Ommaviy axborot vositalari  
 davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi  
 va 2 oyda 1 marta chop etildi.  
 2021 yil noyabr oyidan  
 boshlab har oyda 1 marta  
 o'zbek, rus va ingliz tillarida  
 chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion  
 tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-  
 metodik jurnalidan ko'chirib  
 bosish tahririyatning roziligi  
 bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan  
 faktlarning  
 to'g'riligi uchun muallif  
 mas'uldir

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
Axmetov D. D. Tarix darslarida mustaqil ta'lim topshiriqclari ustida ishlash	7
Axatov J. K. Falсафий - ахлоқий қарашлар таҳлили – тасаввуф, сўфий ва илм тимсоли	13
Ержанова Г. М. Тарих ўқитишда ўқувчиларни мантиқий фикрлашга ўргатувчи ўқув топшириклардан амалиётда фойдаланиш	17
Ганиев С. Т. Олий таълимда миллий тарихни ўқитиш орқали талабаларда mustaqil ishlash кўникмасини ривожлантириш усуллари	22
Iskandarov Sh. N. So'ngi amir said olimxonning afg'onistondagi muhojirligi	26
Miraxmedova Sh. N. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kitobxonlik madaniyati	30
Nasirov B. U. Umumiy ovqatlanish tizimi faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar va ularning aholi turmush tarziga ta'siri. (xix asr oxiri- xx asr boshlarida o'zbekiston misolida)	34
Norinov M.R. Namangan madaniy haqiqatida muzeylarning o'rni (namangan o'lkashunoslik va madaniyat muzeyi misolida)	38
Norqo'chqarov X. E. Afg'onistonda o'zbek tilining qonuniy asoslanishi, o'zbeklar ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni (XX asr – XXI asr boshlari)	41
Xamrokulova Sh. Sh. Qozoq xonligining shakllanish tarixi.	49
Yo'ldashev U. X. Raqamli tarix fanining shakllanishi va taraqqiyoti	53
Yunusxo'jayev H. Z. G'arb olimlari asarlarida ijtimoiy davlatchilik tarixining yoritilishi.	59
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
Abdullayeva X. N. Sehrli ertaklarda g'ayrioddiy tug'ilish motivining o'ziga xos turlari va ulaning tahlili	62
Абдуллаева Р. Х. Лингвокультурный анализ паремий, характеризующих внешность человека в русской и узбекской пословичной картине мира	66
Adizova O. I. Topishmoqlarning ijtimoiy –madaniy o'ziga xosliklari	74
Amonov U. Mumtoz adabiyotimida tazkirachilik an'anasi	79
Axrorova M. A. XX asr boshlarida navoiy an'anasi	86
Azimov Yu. Yu. "Devoni foniy" da she'r va shoirlik haqida	90
Бобо-Ходжаева А. Л. О лингвокультурном влиянии некоторых тюркизмов на современный русский язык	95
Hojiyeva G. S., Abduraximova M. D. Fransuz tilidagi san'at terminlari asosida yasalgan frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari	98
Икрамова Ш. Отражение социальных ролей в семантической структуре слов	101
Муртазаева Ф. Р. Типология женских образов и характеров в мировой «женской прозе»	106
Pardayev S. SH. Til madaniyatning aloqa tizimi sifatida	113
Suyunov R. S. Milliy gvardiya bo'linmalari shaxsiy tarkibini tarbiyalashdagi muammolari	117
Suleymanov T. Kh. The syntactical and lexical peculiarities of "Barn burning" by w. Faulkner	120
Sunnatov T. Qadimgi dunyo madaniyatida badiiy ijod namunalari	124
Tohirova Sh. Y. Fundamental steps for the development of lexical competence in english classes of non-philological higher education institutions based on case studies	128



## FRANSUZ TILIDAGI SAN'AT TERMINLARI ASOSIDA YASALGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

*Hojiyeva Gulchehra Salimovna,  
Buxoro davlat universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasida  
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)*

*Abduraximova Maftuna Dilshodovna,  
Buxoro davlat universiteti 4 kurs talabasi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda frazeologik birliklarning tutgan o'rni, shuningdek, san'atga oid terminosferada iboralarning yasashidagi o'ziga xosliklar hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlari ikki noqardosh til misolida tahlil etilgan.*

*Kalit so'zlar. Iboralar, ohang, kino, nota, konsert, couleur, danser, demi-mot, disque, art, broderie, musique.*

## НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА

*Аннотация: В данной статье на примере двух неродственных языков анализируется роль фразеологизмов в языкознании, а также особенности формирования выражений в терминосфере, связанных с искусством, и их национально-культурные особенности.*

*Ключевые слова. Фраза, мелодия, кино, нота, концерт, couleur, danser, demi-mot, disque, art, broderie, musique.*

## NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS BASED ON FRENCH TERMS OF ART

*Annotation. This article analyzes the role of phraseological units in linguistics, as well as their unique characteristics and cultural significance in the sphere of art. Using the example of an unrelated pair of languages, the analysis focuses on the emergence of idiomatic expressions and their national-cultural peculiarities.*

*Keywords: expression, rhythm, cinema, note, concert, couleur, danser, demi-mot, disque, art, broderie, musique.*

Kirish. Ma'lumki, «san'at» insoniyat tarixi davomida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartira olishi bilan unga mazmun, go'zallik va estetik zavq baxsh eta oladigan ko'rinmas kuchdir. Shu boisdan u kishini ilhomlantirib, ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlikka chorlaydi. Bundan tashqari, san'at hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi sifatida odamlar orasidagi ma'naviy ko'prik hamda muloqot manbai vazifasini bajaradi. Qolaversa, san'at bashariyatning badiiy-estetik didini tarbiyalaydigan hamda unda muayyan dunyoqarashni ma'lum voqelikka nisbatan hissiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy aloqalarni shakllantiradigan darajada takomillashtirish qudratiga egadir.

Manbalarda «san'at» terminiga turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, «San'at – bu his-tuyg'ularga, sezgi va intellektga ataylab murojaat qiladigan faoliyat, ushbu faoliyatning mahsuli yoki u haqida g'oyadir» [10]. «Rassomlik – cheksiz hayrat, tasavvur, taassurot, mo'jizaga boy san'at» [14] hisoblanadi. «Musiqalar – barcha donolik va falsafadan yuqori vahiydir» [13]. «Biz teatrdan hayotni va hayotda teatrni xohlaymiz. Teatr – bu hayot» [12]. «Kino – bu tasvirni tovush bilan birlashtirishga bo'lgan juda kuchli istak» [11]. Shunga o'xshash san'at va uning turlari to'g'risidagi ta'riflarni qator va keng keltirish mumkin. Chunki san'at bu voqelikni badiiy timsollar vositasi bilan ijtimoiy aks ettirishda mahorat ko'rsatish jarayonidir [3, 26].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'kidlash lozimki, san'at sohasiga oid terminlar tilshunoslikda ko'p yillardan buyon tadqiq etiladi [3, 1, 4-8]. Xususan, quyida fransuz tilidagi san'at terminlari ishtirokida hosil bo'lgan iboralarning frazeologik birlik (bundan keyin – FB)lar sifatida obrazli ekspressivlik va ko'chma ma'no ifodalashi bilan bir vaqtda milliy-madaniy xususiyat kasb etishini ham ko'rish mumkin. Jumladan:

note nm

1) nota;

## 2) ohang;

Misol: fausse note – buzuq ohang; qalbaki, yasama, mos kelmaydigan narsa; note cristalline – jarangdor ohang; (loc) note juste – haqiqiy tafsilot; forcer la note – bo‘rttirmoq, orttirib yubormoq, haddan oshmoq, chegaradan chiqmoq; [2,233]; Cet objet, cette remarque étaient bien dans la note. – Bu narsa, bu izoh juda mos tushgan edi. [2,363].

«Nota» hamda «ohang» ma’nolariga ekvivalent hisoblangan «note» termini yuqoridagi misollarda «tafsilot», «had», «chegara» singari ham turg‘un so‘z birikmasi, ham FB yasashga xizmat qilmoqda.

## 2. cinéma nm

1) kino;

2) kinoteatr;

3) kino san’ati;

4) kino olami.

Misol: C’est du cinéma. – Bu qiziq, g‘alati; munofiqlik, soxtalik, uydirma, mubolag‘a [2,92].

Mazkur o‘rinda san‘at termini hisoblangan «cinéma» vositasida yasalgan iboralarning o‘zbek tili leksikologiyasida bir necha sinonimlarga ega bo‘lishi bilan birga, ularning bir-biridan farq qiluvchi, ko‘proq salbiy bo‘yoqdorlikka asoslangan obrazlilik kasb etishiga guvoh bo‘lamiz.

## 3. flûte nf

1) fleyta, nay;

2) fleyta chaluvchi;

3) pl fam oyoq.

Misol: jouer des flûtes – chopmoq, yugurib ketmoq [2,231].

Yuqoridagi misolda musiqa cholg‘u asbobi «flûte» (nay) ishtirokida FB hosil qilingan bo‘lib, ushbu o‘rinda iboradagi so‘zlar o‘zaro birikib, frazeologik butunlik hosil qiladi hamda «tezkorlik», «shoshilish», «olg‘a borish»ni ifodalaydi.

## 4. concert nm

1) konsert;

2) olqishlar oqimi.

Misol: (loc adv) de concert – birga, birgalikda, yakdillik bilan [2,105].

Tahlilga tortilgan «concert» termini o‘z ma’nosida aynan musiqaviy ahamiyat kasb etsa, ko‘chma ma’noda «olqishlar oqimi» hamda «de» predlogi bilan birikib, «bir yoqadan bosh chiqarib», «hamjihat bo‘lib» singari ma’nolarga ishora qiladi.

## 5. couleur nf tus, rang, bo‘yoq.

Misol: couleur feu – o‘t, olov, cho‘g‘dek qizil, qipqizil rang; couleur gris d’acier – po‘lat rang, kul rang; robe de couleur – gulli, rangli ko‘ylak; homme de couleur – oq tanli odam; avoir de belles couleurs – bet, yuzning rangi, tusi yaxshi bo‘lmoq; il est haut en couleurs – uning chakaklari qip-qizil; sous couleur de (loc prép) – niqobi ostida, bahonasi bilan, bahona qilib [2,120].

Yuqorida tahlil etilgan san‘atga oid «couleur» termini o‘z ma’nosidan kelib chiqib, rang va u bilan bog‘liq tarjimalarga ega bo‘libgina qolmay, «sous» hamda «de» predloglari bilan hamohanglikda «niqobi ostida», «bahonasi bilan», «bahona qilib» kabi frazeologizmlar sifatida obrazlilik kasb etganligini ta’kidlash mumkin.

## Natijalar va muhokamalar. 6. danser raqsga tushmoq;

Misol: Elle danse à la perfection. – U a‘lo darajada o‘yinga tushmoqda [2,403]; entrer dans la danse – allaqachon boshlangan ishda qatnashish, guruh yoki harakatga qo‘shilish; ne pas savoir sur quel pied danser – oyog‘i kuygan tovuqday [9].

Tadqiq etilayotgan misollar ichida fe‘l so‘z turkumiga xos bo‘lgan «danser» termini bilan hosil qilingan 1-gapda ushbu fe‘l o‘z ma’nosida, keyingi o‘rinlarda, ya’ni «allaqachon boshlangan ishda qatnashish» so‘z birikmasiga hamda «oyog‘i kuygan tovuqday» iborasiga ekvivalent bo‘lib kelmoqda.

## 7. demi-mot nm shama, ishora, evfemizm

Misol: (loc adv) à demi-mot – so‘z chiqar-chiqmas, og‘zini ochishi bilan [2,146].

Mazkur misol tahlilidan «demi-mot» («yarimta so‘z») so‘z qo‘shilmasi adabiyot – so‘z san‘atiga oid termin sifatida «à» predlogi bilan birikib, ko‘chma ma’noga ega bo‘lganligi hamda «og‘zini ochishi bilan» iborasi shaklida obrazli bo‘yoqdorlik kasb etganini ko‘rish mumkin.

## 8. disque nm gramplastinka

Misol: disque compact (C.D.) – kompakt disk; (loc fam) Change ton disque. – Plastinkani almashtir, gap mavzuini o‘zgartir [2,165].

Misollardan ko‘rinadiki, fransuz tilidagi musiqa san‘atiga oid «disque» termini «changer» («o‘zgartirmoq», «almashtirmoq») fe‘li bilan birikib, noqulay vaziyatda «mavzuni o‘zgartirish»ga ishora

qiladi.

9. art nm san'at

Misol: (loc fam) C'est l'enfance de l'art – Bu juda oddiy [2,195].

Ushbu misol tahlili «san'at» terminining leksik tarjima gap tarkibida «Bu – san'atning yoshligi.» tarzida emas, balki, «Bu – juda oddiy.» ma'nosida aynan fransuz tilida ko'chma ma'no ifodalashini ko'rsatadi.

10. broderie nf kashtado'zlik;

Misol: une broderie à jour – to'rsimon, ko'z-ko'z kashta. [2, 295] raconter sa vie en brodant un peu – hayotini bir oz bo'rttirib gapirib berish; exagérer sa vie en brodant un peu; hayoti haqida bir oz mubolag'a qilmoq, lof urmoq; broder son récit pour se faire remarquer – hikoyasini esda qolarli bo'lishi uchun bo'rttirmoq [3, 102-103].

Yuqorida tahlilga tortilgan barcha misollarda «broderie» («kashtado'zlik»), «en brodant» («bezak berib») va «broder» («kashta tikmoq») terminlari uslubiy bo'yoqdorlik asosida ko'chma ma'no anglatishini ta'kidlash mumkin.

11. musique nf musiqa

Misol: C'est toujours la même musique. – Doim bir xil gap; bir xil rad etish. [3, 113,115].

Ushbu misol tarjimasida «musique» termini bevosita boshqa gap bo'laklari bilan qo'shib, ibora tarkibida «gap», «raddiya» mazmunini anglatgan holda ko'chma ma'no ifodalab kelmoqda.

Xulosa. Tahlillarga suyanib, xulosa qiladigan bo'lsak, san'at inson aql-idroki, mehnati bilan vujudga kelgan, ijod qilingan badiiy asarlar yig'indisi va ularda voqeani badiiy aks ettirish vositasidir. Shuningdek, san'at ijtimoiy hayotning murakkab, rang-barang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida mehnatning alohida turi ham sanaladi. San'at inson aql-idroki, mehnati, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsuli, ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi va dunyoni ma'naviy anglashning oliy namunasi hisoblanadi.

Iboralar ifoda plani bilan mazmun plani o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga kelishiga ko'ra alohida yondashishni o'rganishni talab qiladigan, obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy, publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, san'atga oid terminlar vositasida yasalgan FBlarning o'z navbatida fransuz va o'zbek san'atidagi milliy o'ziga xoslik, madaniy va leksik taraqqiyot hamda mushtarak va differensial belgilarni ochib berishda muhim omillardan ekanligini yana bir bor ta'kidlash o'rinlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

Abdullayev N. San'at tarixi. – Toshkent (1987, 272), 2001. – B.192.

FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA LUG'AT. DICTIONNAIRE FRANÇAIS-OUZBEK. – Toshkent, 2008. – 588 b.

Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Monografiya. – Buxoro, «Sadridin Salim Buxoriy» Durдона, 2023. -140 b.

Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent, «Fan», 1956.

Pardayeva 3. O'zbek tilining zargarlik terminologiyasi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – B.199.

Toshniyozova G.S. O'zbek tilidagi rassomlik atamaları tadqiqi. – Toshkent, «Navro'z», 2015. – B.8-47.

.Мамбетова С.К. Термины искусства и особенности их перевода на английский язык. – Бишкек, 2008.

Фанайлова, Е. Научное искусство или искусственная наука.; Фанайлова Е. [Радио Свобода] 06.12.2009.

<https://fr.babel.com/fr/magazine/les-expressions-francaises-artistiques>

<https://fr.wikipedia.org/wiki/Art>

Devid Linch <https://citation-celebre.leparisien.fr/citation/cinema>

Jyul Renar. <http://evene.lefigaro.fr/citations/mot.php?mot=th%C3%A9%C3%A2tre>

Lyudvig van Betxoven / <https://www.linternaute.fr/citation/theme/115/musique/>

<https://uza.uz/uz/posts/tasviriy-sanatimiz-yuksalishi-y-lida-22-04-2020>